ilmoqda. Bu kabi qator holatlar ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun individual ahamiyatga ega bo'lgan yondashuvlarni amalga oshirish, har bir bosqichga muvofiq chora tadbirlar tizimini shakllantirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg'armasi "Global ta'lim imkoniyatlarini moliyalashtirish" bo'yicha xalqaro komissiyasining jahon ta'lim inqirozini hal qilish strategiyasiga muvofiq taxminan 387 million boshlang'ich maktab yoshidagi, 230 million o'rta maktab yoshidagi bolalar matematika bo'yicha minimal bilim darajasiga erisha olmayapti <sup>[1]</sup>. 2030-yilga borib, past va o'rta daromadli mamlakatlarda 1,4 milliard maktab yoshidagi bolalarning 420 millioni bolalik davridagi eng oddiy ko'nikmalarni o'zlashtira olmaydi <sup>[2]</sup>. Dunyo ta'lim inqirozi ildizlari bolalarning erta ta'limi bilan bog'liq bo'lib, bu muammoni hal qilish mamlakatlar uchun eng yaxshi investitsiyalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'limning tasdiqlangan afzalliklariga qaramasdan, dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarning faqat yarmi maktabgacha ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega <sup>[3]</sup>.

Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng islohotlar amalga oshirilayotganligi, jumladan mazkur islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatli ta'lim sohasini kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligi bilan xarakterlanadi. Mamlakatimizda aholi sonining ortishi hisobiga ta'lim xizmatlarini kengaytirish, ta'lim oluvchilarning bilim-ko'nikma-malakasini shakllantirish orqali ma'lum samaradorlikka erishish maqsad qilib olinganligi sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan birga moliyaviy mexanizm samaradorligini oshirishni talab etadi. Ushbu masalaga doir qator vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da belgilangan bo'lib, bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug'ilishning o'sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turish, moliyalashtirishning yangi normativlarini ishlab chiqish hisobiga maktabgacha ta'lim xizmatlaridan keng aholi qatlamlari foydalanishini ta'minlash, moliyaviy nazorat, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan byudjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi <sup>[4]</sup>. Shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"ni 38-maqсадida, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 2022–2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024–2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish kabi qator vazifalarga ustuvorlik berilganligi <sup>[5]</sup> maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning samarali mexanizmini shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

## MATERIAL VA METOD

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish jarayonlari S. V. Kuznesova, A. N. Ilchenko tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy-demografik omillar ta'sirida o'zgarishi, maktabgacha ta'limni samarali faoliyati uning faoliyat yuritish jarayonlarini to'g'ri tahlil qilishga asoslangan prognoz natijalariga asoslanish qayd etiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy tartibga solish, bu bilan maqsadli mos vositalarni tanlashda matematik usullar va modellardan foydalanish tavsiya etiladi <sup>[6]</sup>.

Iqtisodchi olimlardan T. Malikov, O. Olimjonovlar "moliya mexanizmi – moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning davlat tomonidan o'rnatilgan shakllari, turlari va metodlari tizimi" <sup>[7]</sup> sifatida e'tirof etadilar.

Fikrimizcha, "moliya mexanizmi" kategoriyasiga nisbatan yuqorida berilgan ta'riflar unchalik ham maqsadga muvofiq emas. Chunki, "moliya mexanizmi" bu – ma'lum iqtisodiy tizim doirasida davlat tomonidan tegishli moliyaviy siyosatni ta'minlash maqsadida moliya munosabatlarini amalga oshirishni turli shakllari va usullari kombinatsiyasi hisoblanib, kombinatsion jarayon moliyalashtirish tizimida samaradorlikni oshirishga asos yaratadi.

M. M. Yanson tadqiqotlarida o'z aksini topadi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tizimida davlat byudjeti orqali ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun turli moliyalashtirish manbalari muhokama qilinib, bu borada tegishli xulosa chiqarish uchun ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning 3 yillik moliyalashtirish jarayonlari bo'yicha qiyosiy tahlil-larini amalga oshirish tavsiya etiladi<sup>[8]</sup>. Shuningdek, A. F. Abdullayevning tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'shimcha moliyalashtirish manbasini shakllantirishda, pulli ta'lim xizmatlarini joriy etishni guruhlar kesimida tabaqalashtirish orqali byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish taklif etilgan <sup>[9]</sup>.


X. B. Nazarov ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash muammolari va jahon amaliyotida mavjud bo'lgan tahlil asosida ta'limga byudjet xarajatlari samaradorligini baholashga nisbatan uslubiy yondashuvlar muhokama qilinadi <sup>[10]</sup>.

## NATIJALAR

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi jami 100 ta maqsadni qamrab olgan bo'lib, shundan 34 tasi adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy tamoyillariga muvofiq inson kapitali rivojlanishini ta'minlash milliy iqtisodiyotimiz uchun dolzarb ahamiyatga molikdir. Har bir mamlakat uchun yosh avlodning kelajakda munosib o'rin egallashi va raqobatbardosh kadrarga aylanishi, real hayotda yutuqlarga erishishi, yuqori malaka ko'nikmalarni egallashi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratish muhimdir.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini oshirish, davlat moliya tizimini takomillash-tirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bu orqali ta'limning konstitutsiyaviy kafolatlarini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishning shahar va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, davlat maktabgacha ta'limini rivojlantirishning optimal byudjet xarajatlarini ta'minlash kabi qator vazifalar ijrosini amalga oshirishda, ayniqsa, moliyalashtirish jarayonini byudjet mablag'laridan foydalanish tizimining asosi ekanligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini kengaytirish, kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun sifatli ta'lim olishni ta'minlash, maktabgacha ta'limning ijtimoiy ehtiyojlarini to'liq qamrab olishga yo'naltirilganligi fikrimizni asoslash uchun xizmat qiladi.

2022-yilda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida davlat byudjetidan jami 8 641,3 mlrd. so'mlik mablag' ajratilgan bo'lib, bu ta'limga ajratilgan umumiy xarajatlarning 18,4 foizini tashkil etadi. Oila va bolaning maktabgacha ta'lim muassasasi xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish tizimini takomillashtirish maqsadida davlat xususiy sherikligiga asoslangan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 1 500 mlrd. so'm byudjet mablag'lari ajratilgan. Bu ko'rsatkichlar, byudjetdan maktabgacha ta'lim uchun qilingan xarajatlarni qariyb 17,4 foizini tashkil etadi. Moliyalashtirishning yuqori ko'rsatkichi, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun ajratilgan bo'lib, 4 724,6 mlrd. so'm mablag' ushbu jarayonni moliyalashtirishga sarflangan (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston Respublikasida 2022-yil uchun maktabgacha ta'lim xarajatlarining tarkibi, (mlrd. so'm) <sup>[11]</sup>

Shuningdek, oziq-ovqat, joriy ta'mirga xarajatlar, kommunal xizmat va ko'mir sotib olish xarajatlarining umumiy qiymati 1 631,6 mlrd. so'mni tashkil etgan. Ushbu xarajatlar jami xarajatlarning taqriban 18,9 foiz ulushga ega. O'z navbatida maktabgacha ta'lim xizmatlari bozori faoliyatini modernizatsiya qilish, sohada bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonlarida mulkchilik munosabatlarining o'rni, maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining mutloq o'sish sur'atini ta'minlash bilan birga uning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirish uchun ham xizmat qilayotganligini kuzatishimiz mumkin. 2020–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining umumiy ko'rsatkichlari tarkibida bu boradagi sifat o'zgarishlari ta'minlangan. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining umumiy ko'rsatkichi 18345 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich qo'shimcha 49 foizga oshib, 27303 taga etgan (1-jadval).

1-jadval: 2021–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ko'rsatkichlari <sup>[12]</sup>

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni	18345	22429	27303
shundan:			
Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari	5981	6031	6387



DXSh asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari	1166	1200	1345
Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari	10771	14579	18797
Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari	427	619	774
Quvvati (ming o'rin)	852,5	856,2	858,3
Guruhlar soni (ming birlik)	46	46,3	46,8
Tarbiyalanuvchilar soni (ming kishi)	1608,0	1715,3	1918,1
shundan:			
Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (ming kishi)	1130,7	1153,3	1311,0
DXSh asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (ming kishi)	107,5	118,3	133,0
Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (ming kishi)	369,7	443,7	494,0
3–7 yoshdagi bolalar soni (ming kishi)	2792,8	2876,6	2927,4
Bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi, %	58	63	67

2020–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ko'rsatkichlarining umumiy tarkibida davlat xususiy sheriklikligi sohasidagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini 1166 tadan 1345 taga yetkazish bilan bog'liq vazifalarning qayd etilganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlat xususiy sheriklik tizimiga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'lari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovqatlan-tirish va ularga qarab turish uchun olinadigan to'lovlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Monitoring natijalariga asosan kelgusi yil uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limni tashkil etishni moliyalashtirish bo'yicha xarajatlar smetasi umumta'lim dasturlarida belgilangan standartlar bo'yicha olib boriladi. Mahalliy byudjet hisobidan subvensiyalarni hisoblashda byudjetdan moliyalashtirishning davlat standarti va maktabgacha ta'lim tashkilotlari birgalikda tashkil etilgan taqdirda ularni bevosita moliyalashtirish hajmi qo'llaniladi. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga byudjetdan ajratilgan mablag'lar miqdori 12,4 trln. so'mni tashkil etgan bo'lib, byudjetdan ajratilgan mablag'larning 85 foizini davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari tashkil etadi. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga byudjetdan ajratilgan mablag'larning 1,8 trln. so'mi yoki qariyb 15 foizi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun subsidiyalar hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasiga sarflar, ma'muriy va boshqa xarajatlar guruhi tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini byudjetdan moliyalashtirish jarayonida xarajatlar smetasi bo'yicha ajratilayotgan joriy mablag'lar, hisobot davri uchun bozor baholarini hisobga olgan holda ajratilganligi sababli, xarajatlarni moliyalashtirishda mablag'larni yetishmasligi bilan bog'liq muammoli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin. Bunday jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruhi uchun xarajatlar miqdori oshiriladi.

Fikrimizcha, bu borada moliyalashtirishning turli shakllari va muqobil variantlari konsentratsiyasini ta'minlash orqali moliyalashtirish jarayonida optimal samaradorlikka erishish mumkin. Hududlarda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini oshirishda maktabgacha ta'limni tashkil etishning qamrov darajasi va uni oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lardan foydalanishda optimal samaradorlikni ta'minlash bilan birga, hududlarda maktabgacha ta'lim xizmatlari ko'rsatishning murakkabligi orqali izohlash mumkin. Ushbu jarayonga aholi sonining o'sishi va aholi daromadlar darajasi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu borada tegishli samaradorlikni oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda bozor munosabatlarini takomillashtirishda kapital qo'yilmalarni qisqa muddatli to'lovlar oqimi bilan almashtirish, davlat tomonidan moliyalashtirish jarayoni cheklangan loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirishdan manfaatdor bo'lgan xususiy sektorga o'tkazish doirasida tegishli chora tadbirlar tizimini tashkil etishni talab etadi.

## MUNOZARA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmning tarkibiy tuzilishi moliyaviy munosabatlarni xilma-xilligiga mos keladigan turli elementlarni o'z ichiga oladi. Aynan moliyaviy munosabatlarning ko'pligi moliyaviy mexanizmning ko'p sonli element-laridan foydalanishni belgilab beradi. 2021–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ko'rsatkichlarining umumiy tarkibida davlat xususiy sheriklikligi sohasidagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini 1166 tadan 1200 taga yetkazish bilan bog'liq



vazifalarning qayd etilganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlat xususiy sheriklik tizimiga alohida e'tibor qaratilayotganligi bilan belgilanadi. Oilaviy Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini oshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5144-sonli Qaroriga muvofiq, bolalar bog'chasining avtonomligini mustahkamlash, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash<sup>[13]</sup> bo'yicha zarur chora tadbirlar doirasida amalga oshirib kelinmoqda. O'z navbatida moliyalashtirish mexanizmining asosiy samaradorlik ko'rsatkichi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning qamrov darajasi hisoblanib, 2021-yilda bu ko'rsatkich 1608 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 1715,3 ming tarbiyalanuvchiga yetkazish rejalashtirilgan<sup>[14]</sup>.

Shu bilan birga, byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish uchun ajratilayotgan xarajatlarni ijtimoiy jihatdan yo'naltirish, bu borada ota-onalarning daromadlaridan kelib chiqqan holda moliyalashtirishning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirishga ehtiyoj ortib boradi. Bu kabi qator holatlar O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmining samaradorligini oshirishda:

- maktabgacha ta'lim subyektlari shaxsiyatining ijodiy salohiyatini rivojlantirish;
- bolaning shaxsiy rivojlanishi ko'rsatkichlari: ijodkorlik, motivatsiya, qiziquvchanlik, zukkolik, axloqiy rivojlanish darajasi ni ta'minlashga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq mazkur muammoning samarali yechimini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, bu borada xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlar bilan bog'liq loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan "ensure operational efficiency of cost reduction" dasturini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlar dasturi maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning umumiy strategiyasi doirasida shakllan-tiriladi. Imtiyozli kreditlar bilan bog'liq loyihalarni strategik va joriy rejalashtirish jarayoni, moliyalashtirishni tarmoq va hududiy taqsimlash tizimi orqali imtiyozli kreditlar bilan bog'liq loyihalarni davlat va hududiy darajadagi tizimiga integratsiyasini ta'minlaydi. Imtiyozli kreditlar bilan bog'liq loyihalarni o'zlashtirishni yig'ma manzilli dasturi doirasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayoni amalga oshiriladi. Loyiha uchun ajratilgan mablag'lar sarflanishi va natijadorligini doimiy monitoringi orqali imtiyozli kreditlar bilan bog'liq loyihaviy rejalarni operativ o'zgartirish imkoniyati vujudga keladi. Imtiyozli kreditlar bilan bog'liq loyihalarni ta'rif tizimi orqali hududlarda samaradorlik ko'rsatkichi pastligi sababli moliyalashtirish imkoniyati cheklangan loyihalar portfeli shakllantiriladi. Joriy yilda moliyalashtirish imkoniyati yuqori bo'lgan loyihalar muqobil variantiga almashtirib boriladi. Ushbu dasturning amaliyotga joriy etilishi maktabgacha ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini takomillashtirish orqali moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish uchun xizmat qiladi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmining istiqbolli yo'nalishlari maktabgacha ta'lim dasturlarini to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish borasida maqsadli ko'rsatkichlarni ta'minlash emas, balki maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat siyosatida moliyalashtirishning barcha shakllari uchun teng shart-sharoitlarni ta'minlash orqali raqobat muhitini takomillashtirish jarayonlarini taqozo etadi. Ammo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ta'minlashda qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bilan bog'liq qator omillarga alohida e'tibor qaratish lozim.

## XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyalashtirish tizimidagi mavjud muammolarni hal etish, moliyalashtirish tizimini amalga oshirishning yangi modellari, tizim elementlari muvofiqligini moliyalashtirish manbalariga yo'naltirish orqali moliyalashtirishda tegishli samaradorlikni oshirish talab etiladi. Bu o'z navbatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi yangi aloqalarni shakllantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirish, ta'limni moliyalashtirishning yangi modellari byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning mos proporsiyasini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shakllari va ularning tuzilmaviy tarkibini hududlar o'rtasidagi muvofiq-ligini ta'minlash orqali maktabgacha ta'limni moliyalashtirish jarayonida maqsadli ko'rsatkichlarga erishish mumkin.

Fikrimizcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq samarali natijadorlikni ta'minlash uchun quyidagi vazifalarning amaliy ijrosini ta'minlash maqsadga muvofiq:





- hududlar o'rtasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalash-tirishda mavjud standartlar va modellar orqali qiyosiy tahlillarni amalga oshirish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda yangi yondashuvlar, standartlar, modellar, strategiyalarni ishlab chiqish orqali byudjetdan moliyalashtirishni hajmini qisqartirish;
- hududlar o'rtasida ta'limni moliyalashtirishning eng samarali usullari va modellarini shakllantirishda moliyalashtirish metodologiyasini standartlashtirish, ta'limni moliyalashtirish sohasidagi konsepsiyani ishlab chiqish va boshqalar.

Maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning asosiy yondashuvlari mamlakatlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimning amal qilish xususiyatiga bog'liq bo'lib, ta'lim uchun to'lovning moliyaviy yukini qayta taqsimlashga nisbatan urinishlar har bir moliyalashtirish manbasining faoliyatini tizimli tashkil etishga asos yaratadi.

Maktabgacha ta'limni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish ta'lim jarayonlarini moliyalashtirishning mavjud usullari va mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va yangilashdan iborat. Mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda eng samarali foydalanish jarayonini amalga oshirish talab etiladi. Hozirgi bosqichda moliyalashtirishning yangi modellarini izlash, birinchi navbatda, ta'lim tizimini davlat va xususiy moliyalashtirish o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashdan iborat bo'lib, mazkur jarayon ta'lim xizmatlarining samaradorligi oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini baholash jarayonlariga doir tahlil natijalari, maktabgacha ta'limni moliyalashtirishda moliyaviy rejalashtirishning o'rni va ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash tizimini samarali amal qilishi zamonaviy ta'lim xizmatlarini tashkil etish va samaradorligini oshirishga asos yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO Institute for Statistics.
2. The International Commission on Financing Global Education Opportunity, The Learning Generation: Investing in Education for a Changing World, The International Commission on Financing Global Education Opportunity, n.d.,, accessed 6 August 2019.
3. UNICEF 2019–2030 Education Strategy: Data and Analytics.
4. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"gi PF–60-sonli Farmoni.
6. Кузнецова С. В, Ильченко А. Н. Проблемы финансирования дошкольных образовательных учреждений (ДОУ) // Современные наукоемкие технологии. – 2008. – № 4. – С. 170–172.
7. Malikov T, Olimjonov O. Moliya. Darslik.– T.: "Iqtisod-Moliya" 2019. – 800 b.
8. Янсон, М. М. Источники финансирования модернизации материально-технической базы государственных бюджетных общеобразовательных и дошкольных образовательных учреждений Санкт-Петербурга// Молодой ученый. 2021. № 2 (344). – С. 288–292.
9. Abdullayev A. F. O'zbekistonda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T., 2020. – 61 b.
10. Nazarov X. B. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish samaradorligini baholash usullari. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2
11. O'zbekistonda fuqarolar uchun 2022-yil byudjet loyihasi. – T., 2021. 15–16
12. O'zbekistonda fuqarolar uchun 2022-yil byudjet loyihasi. – T., 2021. 15–16 bet
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–5144-sonli Qarori
14. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi ma'lumotlari.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

